

Бухоро давлат университети магистрантларининг илмий мақолалар тўплами



2016

ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ МАГИСТРАНТОВ*COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES OF BUKHARA STATE UNIVERSITY POST-GRADUATE STUDENTS



tabiiy. Bunday vaziyatlarda o'sha so'zlarni o'zini tarjima qilmagan holda taqdim yoki izohlab berish mumkin ("sumalyak"; a special dish of Navruz holiday). Yuqoridagi qiyinchilik tug'diruvchi masalalarni hisobga olib, aytish joizki, tarjimon yetarli bo'lmaganlik ko'nikmalarga ega bo'lish bilan bir qatorda tez fikrlay oladigan, zehni o'tkir bo'lgan shaxs bo'lishi zarur.

Shu paytgacha G'arb olimlari o'z ona tillari va boshqa bir xorijiy tillarning tarjima usullari va metodlari ustida ish olib borishgan. Ular qo'llagan metodlarning hammasidan ham inglizcha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-inglizcha tarjimada foydalanib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tili Yevropa tillaridan farqli o'laroq qo'shimcha tillar oilasiga mansubdir hamda uning sintaktik va morfologik qurilishi tubdan farqli. Shu boisdan, o'zbek tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan o'zbek tiliga sinxron tarjima metodlari va nazariyalari ustida yetarli darajada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilmaganligini hisob olib, shu masala yuzasidan chuqur tadqiqot ishlarini olib borish o'zimizga maqsad qilib oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O. Mo'minov. Sinxron tarjima. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2005
2. Z.G.Proshina. Theory of translation (English and Russian). Coursebook. – Vladivostok: Izdatelstvo Dalnevostochnogo Universiteta, 2008 (3rd edition)
3. I. G'afurov va boshqalar. Tarjima nazariyasi. –Toshkent, 2012
4. N.A. Shermuhammedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. –Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTLARDA SON KATEGORIYASINI IFODALANISHI

JUMAYEVA OZODA ILHOMJONOVNA (BuxDU magistr ta'lim oluvchi)

Har bir til o'ziga xos grammatik-struktural xususiyatga ega. Kelajak avlodga o'rnatilgan beruvchi biz- bo'lg'usi ingliz tili o'qituvchilari esa ushbu xususiyatlarini o'zimizning o'rganmasdan yoshlar ongiga singdira olmaymiz.

Bizga ma'lumki, barcha so'z turkumlari turli grammatik kategoriyalarga ega bo'lgan jumladan, otlarning ham ma'lum grammatik kategoriyalari bo'lib, ulardan biri ot son kategoriyasidir.

Hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillarida son kategoriyasi birlik va ko'plik formalaridan iborat, ammo ushbu tillardagi son kategoriyasini hosil qilish usullari turlicha. Taniqli olim J.Bo'ronovning fikriga ko'ra, ingliz tilida otlar ko'plik formasini hosil qilish qilmasligiga ko'ra 2 turga bo'linadi¹:

- a) sanaladigan otlar b) sanalmaydigan otlar

Ingliz tilidagi bread//non, water//suv, snow//qor kabi otlar sanalmaydigan otlar hisoblanib, ular faqat birlik sonda ishlatiladi.

Professor A.T. Iruskulovning ta'kidlashlaricha, ingliz tilida birlik sonda grammatik ko'rsatkichga ega emas. Ammo otlardan ko'plik shaklini yasash uchun necha usullari bor²:

1. Birlik sondagi otga –s,-es qo'shimchasini qo'shish orqali:
book-books
key-keys

¹Ж . Бўронов. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси “Ўқитувчи”.-Тошкент,1973, 136б

² A.T. Iruskulov. Theoretical Grammar of English, Tashkent 2006, 19b

- match-matches
dish-dishes
2. So z o'zagini o'zgartirish orgali:
Tooth-teeth
Goose-geese
Mouse-mice
Professor J. Bo'ronov esa ushbu qatorga leksik va sintaktik usul bilan ko'plik hosil qilishni qo'shadi:
1. Leksik yo'l bilan ko'plik formani yasash 2 xil usulda olib boriladi:
a) So'z yasovchi suffiksalar yordamida ko'plik ma'nosini ifodalash. Masalan:
-cade: cavalcade-chavonдозлар
-ture: denture - tish tizimi
c) bevosita so'z negizi vositasida ko'plikni ifodalash. Bu turga asosan kollektiv, jamoaviy ma'no beradigan so'zlar kiradi. Masalan:
family-oila
team-jamoa
2. Sintaktik usul bilan ko'plik yasash. Bunda ko'plik leksik usul asosida yaratilib, ifodalovchi so'zlar boshqa bir ot oldidan ishlatiladi.
-a lot of pens
some notebooks
several apples
Bundan tashqari ingliz tili boshqa tillardan kirib kelgan ko'plik formalari ham mavjud. Bunday so'zlar ingliz tili asosan lotin va grek tillaridan kirib kelgan. Masalan:
bacterium-bacteria
agendum-agenda
datum-data
basis-bases
cactus-cacti
corpus-corpora
curriculum-curricula
Hozirgi zamon ingliz tili shunday otlar borki, ular birlik va ko'plik formalarida shaklda bo'ladi. Bunday otlar neytral otlar deb ataladi
fish, sheep, fruit
Ingliz tilidagi qo'shma otlardan ko'plik formasini yasash uchun -s(es)
masl: odatda so'z oxiriga qo'shiladi:
andholder-landholders
school house-school houses
brother-in-law, passer-by kabi qo'shma otlardan ko'plik formasini hosil qilish ko'plik formasi predlogdan oldingi otga qo'shiladi. Masalan:
Passers-by
Brothers-in-law
Hozirgi zamon o'zbek tilida birlik sonidagi otlarning ham xuddi ingliz tilidagidek ko'rsatkichi yo'q. M: daraxt, kitob, uy, mashina. Ammo otlardagi ko'plik hosil qilishning quyidagi usullari mavjud: